

HARBIY XIZMAT SHAROITIDA AXLOQIY QADRIYATLARNING DO'STONA MUNOSABATLARI

Sodiqov Sardorbek Soxibjon o'g'li

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining sikl boshlig'i, Toshkent
shahar, +99 890. 569-21-21.*

Annotatsiya. Ushbu maqolada harbiy xizmat sharoitida axloqiy qadriyatlarning do'stona munosabatlari, harbiy xizmatchilarning oila, jamiyat, xalq manfaatlarini anglab, qilayotgan harakatlari, ma'naviy sohada ma'naviy qadriyatlarimizni ilm-fan va taraqqiyot yutuqlari bilan boyitib borish, o'zligimizni chuqurroq anglash, milliy g'oya va istiqlol mafkurasi tamoyillarini xalqimizning qalbi va ongiga singdirish, muqaddas dinimiz va tariximizni soxtalashtirish, ulardan siyosiy maqsadlarda foydalanishlariga yo'l qo'ymaslik haqida so'z boradi.

Tayanch so'zlar: qahramonlik, jasorat, matonat, milliy tarbiya, muqaddas qadriyatlar, milliy urf-odatlar, milliy g'oya, ta'lim-tarbiya, mafkura, milliy qadriyatlar, axloqiy qadriyatlar, milliy g'urur, milliy ruh, jangovar ruh, harbiy vatanparvarlik, axloqiy-siyosiy madaniyat.

Аннотация. В этой статье будут рассмотрены вопросы о дружественных отношениях моральных ценностей в условиях военной службы, о любых поступках военнослужащих, реализующих интересы семьи, общества, народа, в духовной сфере, об обогащении наших духовных ценностей достижениями науки и развития, о более глубоком понимании нашей идентичности, о внедрении принципов национальной идеи и идеологии независимости в сердца и умы нашего народа, о сохранении нашей священной религии и истории. речь идет о фальсификации, предотвращении их использования в политических.

Ключевые слова: героизм, мужество, стойкость, национальное воспитание, священные ценности, национальные обычаи, национальная идея, воспитание, идеология, национальные ценности, нравственные ценности, национальная гордость, национальный дух, боевой дух, военный патриотизм, морально-политическая культура.

Abstract. This article will talk about the friendly relations of moral values in the conditions of military service, about any actions of military personnel realizing the interests of the family, society, people, enriching our spiritual values in the spiritual sphere with achievements of Science and development, deeper understanding of our self, instilling the principles of national ideology and independence ideology in the heart of

Key words: heroism, courage, perseverance, national upbringing, sacred values, national traditions, national idea, education, ideology, national values, moral values, national pride, national spirit, fighting spirit, military patriotism, moral-political culture.

“Milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy ta’siri bo‘lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o‘rgatishimiz ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur” [8], – dedi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich. Xalq farovonligi va Vatan taraqqiyoti uchun o‘z jonlarini ayamada Vatan uchun kurashgan buyuk ajdodlarimizdan bir nechasini qahramonliklarini ta’kidlab o‘tishimiz zarur deb hisoblayman. Shavqatsizligi bilan dunyoni titratgan Chingizxonga va uning avlodlariga qarshi munosib kurashgan yengilmas sarkarda Jaloliddin Manguberdi va uning jiyani, islom qahramoni – Sayfuddin Qutuzning qahramonligi, jasorati va metin irodasi yot mafkuralardan holi bo‘lgan. Hozirgacha bizga yetib kelgan qahramonlik eposlarida Vatan mustaqilligiga va xalq erkinligiga intilishlar, qabilasi va yurti uchun jonini baxsh etishlar, milliy g‘urur, vatanparvarlik, or-nomus, shon-sharaf va tinchlik uchun kurashlar aks etadi. To‘maris, Siyovush, Alpomish haqidagi epik asarlarda tasvirlangan qahramonlar Vatanini qattiq sevganlar. Buyuk maqsad sari intilib, yurti hamda xalqining osoyishtaligini saqlash maqsadida jonini qurbon qilish, har qanday mashaqqatlarga bardosh berish ularning asosiy fazilatlari hisoblangan. Xalq qahramonlarining asosiy fazilatlari jasurlik va mardlik bo‘lgan.

Mamlakatimiz “Taraqqiyot strategiyasi” [1] da yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘ulari, bag‘rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, hayotga e’tiqodi va dunyoqarashi mustahkam, zararli ta’sirlarga qarshi tura oladigan shaxs sifatida tarbiyalash vazifalari aniqlab berilgan.

Mutafakkir va jadid ma’rifatparvar bobolarimiz haqida so‘z borar ekan Prezidentimiz

Sh.M. Mirziyoyev quyidagi so‘zlarni, ya’ni “Umuman biz jadidchilik harakati, ma’rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o‘rganishimiz kerak. Bu ma’naviy xazinani qancha ko‘p o‘rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko‘p savollarga to‘g‘ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ‘ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi” – deb aytgan edi. Ma’lumki, Turkiston o‘lkasi Rossiya imperiyasi tomonidan istilo etilgach, o‘lkada mustamlakachilik tartiblari o‘rnatildi. Millatni ushlab turishga qaratilgan mustamlakachilik siyosatiga qarshi o‘laroq, yurtimizda XX – asr boshlarida vujudga kelgan jadidchilik harakati haqiqiy ma’rifatparvarlik oqimiga aylandi.

Professor DA. Alimova ta’kidlaganidek, “Jadidlar mafkurasida dinning inson ma’naviy kamolotidagi o‘rnini to‘g‘ri tushunish, o‘lkada o‘ziga xos milliy rivojlanishni shakllantirish kabi tarixiy vazifalar jamlangan edi. Bu vazifalarni amalga oshirishning muhim shartlari bo‘lib, islom tushunchasini yangilash, uni mutaassiblikdan tozalash, fan yutuqlari va ilg‘or texnologiyalarni egallash muammolarini hal etish lozim edi” [2].

Shu sababdan ham o‘lkada ko‘plab jadid namoyondalari Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar Qori Abdurashidxonov, Abduqodir Shukuriy, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Majid Qori Qodiriy, Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev, Toshpo‘latbek Norbo‘tabekov, Fayzulla Xo‘jayev, Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jayev, Sadriddin Ayniy, Abdulhamid Chulpon, Isoqxon Ibrat, Muhammadsharif So‘fizoda, Boltihoji Sultonov, Raxmonberdi Madazimov, Polvonniyoz hoji Yusupov, Boboovun Salimov, Shokirjon Rahimiy, Abdulvohid Burxonov, Rustambek Yusufbekov, Abduvahob Ibodiy va boshqa ma’rifatparvarlik namoyondalari

faoliyat olib bordilar. Ular mehnatining samarasi o'laroq yurtimizda ma'rifatchilik harakati keng quloch yoydi.

Hammamiz bilamizki, har bir xalqning ma'naviyatini uning tarixidan, o'ziga xos xususiyatlaridan, milliy tarbiyasidan, milliy urf-odatlaridan, milliy an'analaridan, milliy g'ururidan, muqaddas qadriyatlaridan va milliy mafkurasidan boshqacha tasavvur qilib bo'lmasa kerak. Butun olam olimlari va xalqaro jamoatchilik ko'hna Turon zamini butun jahon sivilizatsiyasining beshiklaridan biri bo'lib kelganligini e'tirof etganlar. Buyuk ajdodlarimizning ma'naviy dunyosi borasida so'z ketganda, yana buyuk bobomiz Amir Temur haqida to'xtalishimiz zarurdir. Chunki mardlik, tengsiz azmu shijoat, sadoqat, jasorat va donishmandlik ramzi bo'lgan bobomiz Amir Temur buyuk davlat barpo etgan. Amir Temur bobomiz buyuk davlatchilik borasida o'zidan amaliy, nazariy va harbiy meros qoldirgan. Madaniyat, bunyodkorlik, ilmu-fan, ma'naviyat va din taraqqiyotiga keng yo'l ochgan. O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, asrlar davomida xalqimiz qalbida yashab kelgan, ammo turli siyosiy bosimlar sabab cheklovlarga uchragan ko'plab milliy an'analar, urf-odatlar va marosimlar qayta tiklandi. Mustaqillik tufayli o'zligimizni anglash, tarixiy ildizlarga qaytish, ajdodlar merosini qadrlashga keng yo'l ochildi. Jumladan, Navro'z, Hayit, Beshik to'yi, Sunnat to'yi, Qiz chiqarish, Nikoh to'yi kabi an'anaviy marosimlar nafaqat saqlab qolindi, balki yangicha ruhda, zamonaviylik bilan uyg'un holda rivojlantirildi. Shuningdek, xalq og'zaki ijodi, milliy liboslar, hunarmandchilik, qadimiy urf-odatlar va marosimlar davlat darajasida e'tirof etilib, madaniy meros sifatida qo'llab-quvvatlandi. Bu esa xalqimizning ma'naviy uyg'onishini ta'minlab, yosh harbiy xizmatchilarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ularni o'z tarixiga, madaniyatiga, tiliga va diniga hurmat ruhida voyaga yetkazishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Barchamizga ma'lumki, mustaqillikni qo'lga kiritganidan keyingi yillardan boshlab, mamlakatimizda "milliy qadriyatlarni, milliy ma'naviyatimizni qayta jonlantirilib, ularni asl qiyofasiga keltirish ayniqsa yoshlarimizni milliy ma'naviyatimiz ruhida tarbiyalashga astoydil kirishildi" [3]. Hozirgi globallashuv sharoitida aholining keng qatlamlarida, ayniqsa yosh harbiy xizmatchilarda milliy g'oyaga sodiqlik, vatanparvarlik tuyg'ularini, yuksak ma'naviy-axloqiy qarashlarni tarbiyalashning, ularda mafkuraviy-ma'naviy immunitetni shakllantirishning dolzarbligi yanada oshmoqda. Harbiy xizmat sharoitida axloqiy qadriyatlarning do'stona munosabatlari eng muhim rolni o'ynaydi, bu Qurolli Kuchlarda har bir harbiy xizmatchining Vatanni himoya qilishdagi o'z burchini bajarishdagi javobgarligi bilan bog'liq.

"Biz bugungi keskin sharoitda g'oyaviy-mafkuraviy sohada raqobatga tayyormi? Yosh avlodimiz tarbiyasi murakkab zamon talablariga javob beryaptimi?" Bular oddiy savol emas. Odamni jiddiy o'ylantiradigan, tashvishga soladigan savollar. Agar biz bu yorug' dunyoda "o'zbek", "o'zbekistonlik", "O'zbekiston" degan nomlar bilan yashab qolishni istaydigan bo'lsak, bu savollarga bugun javob topishimiz va ular hal etish bo'yicha amaliy harakatlarni aynan bugun boshlashimiz shart. Ertaga kech bo'ladi" [7], – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Ushbu masalani chuqur tahlilini amalga oshirishdan oldin, bevosita vatanparvarlik fazilatlarini yuksaltirishda xizmat qiladigan axloqiy qadriyatlar va qadriyatlar degan tushunchalarga tarif berib o'tishga to'g'ri keladi. Qadriyat - inson va insoniyat uchun

ahamiyatli bo'lgan, millat, ellat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan tabiyat va jamiyat hodisalari majmui tushuniladi. Bunda qadriyatlar: 1. Mazmuniga ko'ra – moddiy va ma'naviy. 2. Ko'lamiga ko'ra – milliy, global va mintaqaviy. 3. Jamiyat sohasiga ko'ra axloqiy, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va hokazolarga turlanadi. Axloqiy qadriyatlar - bu qadriyatlarning jamiyat sohasiga ko'ra tarkibiy qismi bo'lib u kishilarning bir-birlariga o'zlari mansub jamoaga, vatanga nisbatan tarixan tarkib topgan munosabatlarni ifodalaydi. Axloq muayan xulq-atvor, odob, hatti-harakat, norma, qoida va prinsiplar majmuasidir. Axloqiy tushunchalariga yaxshilik va yomonlik, burch, vijdon, sha'n (or-nomus), baxt, adolat, ideal kabilar kiradi [4]. Harbiy xizmatchilarning oila, jamiyat, xalq manfaatlarini anglab qilayotgan har qanday harakati yaxshilik kategoriya nuqtai nazaridan baholanadi.

Axloq kategoriyalari insonning yurish-turishiga baho beradi, uni jamiyatda mavjud, ko'pchilik ma'qullagan harakatga chorlaydi.

Harbiy faoliyatdagi axloqiy qadriyatlar - harbiy xizmatda tarixan shakllangan va avloddan-avlodga o'tadigan, harbiy xizmatni namunali bajarish bilan bog'liq bo'lgan harbiy xizmatchilarning odob-axloq qoidalari va intizom qoidalari rioya etishlaridir.

Axloqiy qadriyatlar bevosita jangovar va harbiy an'analarda ham namoyon bo'ladi. Jangovar an'analari esa, jangovar harakatlar jarayonida shakllangan. Ularning maqsadi - harbiy xizmatchilarning yuqori axloqiy-jangovar sifatlarini saqlab qolishda ma'naviy-axloqiy tarbiyani qo'llash ya'ni jangovar sharoitlar uchun (ilg'or tajribani uzatish, jangda va ta'lim jarayonida o'zaro yordam, davlat bayrog'ini himoya qilishda, jangda komandir bilan birdamligida) xizmat qiladi.

Harbiy o'rtoqlik – bu harbiy jamoadagi harbiy xizmatchilar o'rtasidagi munosabatlarning birdamligi va jangovar samaradorligiga ta'sir etuvchi munosabatlarning axloqiy va huquqiy normasidir. Harbiy o'rtoqlik deganda, umumiy xizmat manfaatlari, o'zaro ishonch, o'zaro yordam va bir-biriga chuqur mehr-oqibat bilan ajralib turadigan harbiy xizmatchilar (askarlar, serjantlar, ofitserlar) o'rtasidagi qat'iy o'zaro munosabatlar tushuniladi. Buning zahirida harbiy xizmat yillari katta hayot maktabiga aylanganligi, chidamlilik va intizom maktabi sifatida har bir harbiy xizmatchining harakati, xulq atvori harbiy xizmat va harbiy jamoaning qiziqishlari va talablariga mos bo'lishi, javob berishini taqazo etadi.

Bularning barchasini amalga oshirish uchun, albatta intizom talablarini yodda tutish kerak: o'z hayoti xavf ostida bo'lsada o'z do'stlarini xavf - xatarda qo'llab-quvvatlash orqali harbiy o'rtoqlikni qadrlash, o'rtoqlarni xavf-xatardan qutqarish, ularga so'z orqali va amaliy harakatlari orqali yordam berish, harbiy safdoshlarini sha'ni va qadr qimmatini hurmat qilish, hamkasblariga nisbatan qo'pollik va masxara qilishning oldini olish, yo'l qo'ymaslik kerak bo'ladi. Qurolli Kuchlari bo'linmalari va bo'linmalarining jangovar tayyorgarligini va jangovar samaradorligini kuchaytirish uchun do'stlik va harbiy o'rtoqlikning ahamiyati beqiyosdir.

Birinchidan, harbiy xizmatchilarning bir-birlariga o'zaro yordam, do'stlik harbiy jamoani birlashtiradi, jipslashtiradi va armiya mashaqqatlari, qiyinchiliklarini yengish uchun yordam beradi.

Ikkinchidan, xavf bilan bog'liq bo'lgan jangovar topshiriqlarni bajarishda, jangovar burch sifatida qo'riqlash xizmatini bajarishda va boshqa vaziyatlarda topshiriqlarni harbiy jamoaning o'zaro yordamisiz amalga oshirib bo'lmaydi.

Uchinchidan, zamonaviy jamoalarning qurolturlaridan foydalanishda ham bo'linmalarda harbiy o'rtoqlik tobora ko'proq talab qilinmoqda. Bu shuni anglatadiki, jangovar vaziyatlarda harbiy xizmatchilarning harakatlari butun jamoa, ekipaj, guruhning o'zaro kelishilgan harakatlarini anglatadi. Bir-birini mukammal tushunish, hamma narsani ishning manfaatlariga bo'ysunish, bir-birini almashtirish va o'zaro yordamni ta'minlash qobiliyati qo'yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilishningengmuhimshartidir.

To'rtinchidan, harbiy o'rtoqlik vijdonlilik, qadr-qimmat, prinsipiiallikni, harbiy xizmatchilarning bir-birlariga nisbatan o'zaro hurmatva e'tiborli bo'lishni tarbiyalaydi.

Beshinchidan, har xil turdagi qo'shinlarning kelishilgan harakatlari va ularning jang maydonidagi muvaffaqiyatni ta'minlaydi [5].

Harbiy xizmatchilarimizni yuksak axloqiy-ruhiy sifatlarni tarbiyalash, ularda ma'naviy jasorat tuyg'usini shakllantirish turli mafkuraviy-ma'naviy tahdidlardan himoya qilishning muhim omilidir. Jasorat – har bir insonning yuksak kamolotga erishganini ko'rsatuvchi ma'naviy-axloqiy hodisa.

U insonning, jumladan harbiy xizmatchilarimizning jamiyat va uning a'zolari manfaatlarini himoya qilish, mustaqillikni asrab-avaylash, uni yanada mustahkamlash, muayyan vazifani ado etishda fidoyiligi, butun kuch va imkoniyatlarini to'la safarbar etishini anglatadigan ma'naviyat kategoriyasidir. Davlatimiz hamisha demokratik taraqqiyot, modernizatsiya va yangilanish borasida belgilangan maqsadlarga erishishda eng muhim qadriyat va hal qiluvchi kuch bo'lgan bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash vazifasini o'zining asosiy ustuvor yo'nalishlari qatoriga qo'yib kelmoqda. Dunyoda ma'naviy tahdidlar xavfi ortib borayotgan bir davrda mustaqil va sog'lom fikrlaydigan, ajdodlarga yuksak hurmat ruhida ularga munosib bo'lishga intiladigan avlodni tarbiyalash Respublikamizda davlat siyosati darajasiga olib chiqilgan ekan, bu jarayonda faol ishtirok etish har birimizning muqaddas burchimizdir.

Yoshlar ma'naviyatini va axloqiy fazilatlarini yuksaltirishda eng muhim omillardan yana biri – tarixiy xotira – ajdodlarga yuksak hurmat va ehtirom ifodasi bo'lib, o'tganlar xotirasini yodda saqlagan holda, e'zozlab yashash demakdir. Yoshlarni shunday an'ana ruhida tarbiyalash, Vatanimiz tarixi bilan qurollantirish ma'naviyat va milliy mafkurani shakllantirish sohasidagi kechiktirib bo'lmas vazifa ekanligi Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan mamlakatning tarixchi olimlari va jurnalistlari bilan o'tkazilgan suhbatlari (1998 yil 26 iyun) hamda “Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q” nomli asarida (1998) o'z ifodasini topgan. Zero, tarix – xalq ma'naviyatining asosidir.

Binobarin, mustaqil O'zbekistonning buyuk ne'mati bo'lgan erkin va ozodligi xalqimizning barakali mehnati va ijodiy faoliyatidan kelib chiqish bilan birga Turon zaminida voyaga yetgan hamda jahon sivilizatsiyasiga munosib hissa qo'shib, o'z g'oyalari, tafakkuri bilan o'zbek milliy g'oyasiga asos solgan ajdodlarimizning boy merosi va sermazmun tariximizga ham tayanadi.

Mustaqillik yillarida yoshlarimizning mustaqil fikrlashi, ma'naviy olami, ijtimoiy faolligi o'sib borayotgani barcha yutuqlar poydevoriga, kuch-qudrat manbaiga aylanganligini, ayniqsa yurtimizda amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlari, erishilayotgan yutuqlarning negizida inson omili hal qiluvchi rol o'ynayotganini kuzatish mumkin. Ma'naviy meros, milliy qadriyatlarning tiklanishi, sog'lom avlodni har tomonlama yetuk, ma'nan yuksak, komil inson qilib tarbiyalash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Asrlar davomida shakllanib kelayotgan milliy davlatchilik asoslari milliy o'zlikni anglash tamoyili bilan tobora mustahkamlanmoqda.

Milliy-ma'naviy yangilanish, qadriyatlar qayta tiklanishi, iqtisodiy yuksalish taraqqiyot omiliga aylandi. Bizning ulug' ajdodlarimiz o'z davrida komil inson haqida butun bir axloqiy mezonlar majmuini, zamonaviy tilda aytganda, sharqona axloq kodeksini ishlab chiqqanliklarini eslash o'rinli, deb bilaman. Ota-bobolarimizning ongu tafakkurida asrlar, ming yillar davomida shakllanib, sayqal topgan or-nomus, uyat va andisha, sharmu hayo, ibo va iffat kabi yuksak axloqiy tuyg'u va tushunchalar bu kodeksning asosiy ma'no-mazmunini tashkil etadi, desak, o'ylaymanki, xato qilmagan bo'lamiz. Milliy o'zligimizni anglash faqat ajdodlarimizdan qolgan meros bilan faxrlanish, ularni o'zlashtirish bilan chegaralanmasligi, balki turmushimizga shiddat bilan kirib kelayotgan salbiy holatlarning oldini olishni ham qamrab oladi.

“Milliy o'zligimizni anglashimizning bosh yo'nalishi ma'naviy qadriyatlar, ilm-fan, texnika sohasidagi yutuqlarimiz bilan umuminsoniy qadriyatlar tizimiga o'zimizning munosib hissamizni qo'shishga erishishimiz zarur bo'ladi” [6].

O'zligimizni anglashimiz oddiy voqea emas, balki murakkab va mashaqqatli jarayon hisoblanadi. Uni muvaffaqiyat bilan amalga oshirishimiz istiqbolda millatimizning “men” ligini abadiylashtirishga xizmat qiladi. Bularning barchasi yosh harbiy xizmatchilarning, shu jumladan harbiy xizmatchilarning ma'naviy kamolotini oshirishda va ularning malakali kadrlar bo'lib yetishishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'naviy sohada ma'naviy qadriyatlarimizni ilm-fan va taraqqiyot yutuqlari bilan boyitib borish, o'zligimizni chuqurroq anglash, milliy g'oya va istiqloq mafkurasi tamoyillarini xalqimizning qalbi va ongiga singdirish, muqaddas dinimiz va tariximizni soxtalashtirish, ulardan siyosiy maqsadlarda foydalanishlariga yo'l qo'ymaslik bu boradagi asosiy vazifalarimizdan biri bo'ldi. Yosh harbiy xizmatchilarimizni har kuni, har onda fidoyi bo'lishi, o'zining tomchi va tomchi, zarrama-zarra o'z oldiga qo'ygan buyuk bunyodkorlik, yaratuvchanlik maqsadlar sari charchamay, toliqmay safarbar etib borishi, bu fazilatni doimiy, kundalik faoliyat mezoniga aylantirib borishi bu ulardagi haqiqiy ma'naviy jasorat ifodasidir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, harbiy ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil qilish asosiga ilg'or milliy, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va mezonlar, xalq pedagogikasi, marosimlar, bayramlar, o'yinlar va boshqalar qo'yilishi kerak, ularni tashkil qilish va o'tkazishda tarbiya texnologiyalaridan yoki interfaol uslublardan foydalanilishi yosh harbiy xizmatchilarda o'z yurtiga mehr-muhabbat, vatanparvarlik, oilaparvarlik, kasbiy fidoyilikning mustahkamlanishiga yordam beradi.

ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 28- yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning “Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni: <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
2. Alimova DA. Jadidchilik harakatining ijtimoiy-siyosiy mohiyati va jadidlar tafakkuri //Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. T., Universitet, 1999. B.37.
3. Bo‘riyev O. Janubiy O‘zbekiston aholisi etnik tarixidan // Tarix, mustaqillik va milliy g‘oya. – T.: Akademiya, 2001. – B. 206-209.
4. Jondor To‘lanov, Qadriyatlar falsafasi.Toshkent, “O‘zbekiston”, 1998.10-bet
5. Samarov R.S. fals.f.d., professor. Jangovar o‘rtoqlik psixologisi qo‘llanmasi.:T 2020, 28-b.
6. Ochildiyeu A. Milliy g‘oya va millatlararo munosabatlar. – T.: O‘zbekiston, 2004. – B. 28.
7. <http://forum.oyina.uz/kiril/teahause/2019>
8. <https://namsifl.uz/fayl/1680761049.pdf>